

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:33M:356(575.1)

TOXIROV FARRUXJON FOZILJON O‘G‘LI

YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQI BILAN
HAMKORLIKNINGO‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIGA
TA’SIRI

70410401- “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”

Mutaxassisligi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar:
i.f.n., dos. Imomov X.X.

Toshkent–2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

18 - sonli bayonnoma « 26 » aprel 2023 y.

Kafedra mudiri i.f.d., prof. Xudoyqulov X.X.  "___" «___»
imzo sana

Ilmiy rahbar: i.f.n., dos. Imomov X.X.  "___" «___»
imzo sana

Magistr: Toxirov F.F.  "___" «___»
imzo sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil " 30 " may

№ MBF-01/25 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik siyosatini olib borish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish davlat iqtisodiyoti mavqeini yanada oshirishga xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi. Bu esa kelgusida ham O'zbekistonda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikni kuchaytirish O'zbekistonni nafaqat moliya tizimiga balki butun boshli umumiqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini oshirib borishliligiga xizmat qilishligi mavzuning o'ta muhimidir.

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikning O'zbekiston moliya tizimiga ta'siri va uning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan: Shu bilan birga Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining O'zbekiston moliya tizimidagi tutgan o'rni yoritib berildi: O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan moliya tizimidagi hamkorligini samarali tashkil etish va undagi ayrim mavjud muammolarni tahlil qilish natijasida mavjud muammolarning yechimi va yo'nalishlarini ko'rsatib berishga qaratilgan ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *Yevroosiyo, ittifoq, Yevroosiyo iqtisodi, moliya, moliya tizimi, hamkorlik, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro kelishuv, bojxona ittifoqi, hamjamiyat, integratsiya.*

SUMMARY

Improving the mechanism of collaboration and implementation of cooperation with the Eurasian Economic EU is an important factor that serves to further increase the status of the state economy. This is also in the future to strengthen cooperation with the Eurasian Economic Union in Uzbekistan not only serve Uzbekistan to increase its positive impact on the financial development of the entire economic development.

In this master's dissertation, the impact of cooperation with the Eurasian Economic Union on the financial system of Uzbekistan and its economic significance were highlighted: at the same time, the role of the Eurasian Economic Union in the financial system of Uzbekistan was highlighted: as a result of the effective organization of Uzbekistan's cooperation with the Eurasian Economic Union in the financial system and analysis of some

Key words: Eurasia, Union, Eurasian Economic, Finance, Financial System, cooperation, international economic relations, international agreement, customs union, Community, Integration.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
I BOB. KIRISH.....	10
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	11
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	14
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	15
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1. Kirish.....	17
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	17
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
2.4. Xulosa.....	26
III BOB. METODOLOGIYA.....	27
3.1. Tadqiqot dizayni.....	27
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	28
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	29

3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	31
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	31
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	32
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	34
4.1. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining tashkil etilishi va davlatlararo integratsiyani ta'minlagashga qaratilgan maqsad va vazifalari.....	34
4.2. O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligidagi muammolar va yechimlar.....	41
4.3. O'zbekistonning YeOIItqi bilan hamkorligi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri tahlili.....	49
4.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	60
V BOB. XULOSA.....	62
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	62
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	63
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68

I BOB. KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoiti jahon mamlakatlari o'rtasida yuz berayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tendensiyalari – xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalarini chuqur tadqiq etish lozimligini taqozo etmoqda. Bu o'rinda milliy iqtisodiyotlar oldida jahon hamjamiyatiga samarali integratsiyalashuvni chuqurlashtirish orqali tashqi iqtisodiy siyosatni doimiy takomillashtirib borish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning iqtisodchi ekspertlarni fikricha, iqtisodiy integratsiya milliy iqtisodiyotlarning iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi dinamik rivojlanuvchi jarayondir. Shu ma'noda, bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar samarasi jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashishga, ayniqsa, hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga ham bog'liqdir. Shuning uchun, MDH doirasida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikning O'zbekiston moliya tizimiga ta'sirini oshirishda savdo-iqtisodiy munosabatlarni iqtisodiy integratsiyaning muhim ko'rinishi hisoblangan yagona bo'jxona ittifoqi doirasida rivojlantirish, uning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ijtimoiy-iqtisodiyotning yuksalish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri xalqaro iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikni to'g'ri va samarali olib borish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bevosita bog'lik bo'ladi. Bu esa o'z navbatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikning O'zbekiston moliya tizimi bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikni olib borish siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.